



ANALYSIS OF THE VOCABULARY OF SPOKEN LANGUAGE

Sabrina Keldiyorova

1st-year student, Persian-English group
 "School of Iranian and Afghan Studies"
 Tashkent State University of Oriental Studies
keldiyorovasabrina97@gmail.com

S. Sultanxodjayeva

Senior Lecturer
 "School of Iranian and Afghan Studies"
 Tashkent State University of Oriental Studies
 Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Language, communication, lexeme, oral speech, context, meaning, social environment, Iranian people, Persian language, phrase, respect, hospitality, surprise, dissatisfaction, attention, enjoyment, social relations, customs.

Abstract: This article analyzes commonly used expressions in the daily life of the Iranian people and their semantic aspects. During the analysis, not only the literal meanings of these lexical units but also their figurative meanings arising from the context are examined. Their place in the social environment is analyzed through various examples.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

SO'ZLASHUV TILI LEKSİKASI TAHLİLİ

Sabrina Keldiyorova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
 "Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi
 1-kurs fors-ingliz guruhi talabasi
keldiyorovasabrina97@gmail.com

S. Sultanxodjayeva

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi katta o'qituvchisi
 TDShU
 Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Til, muloqot, leksema, og‘zaki nutq, kontekst, ma’no, ijtimoiy muhit, Eron xalqi, Fors tili, birikma, hurmat, mehmondo‘slik, hayratlanish, norozilik, e’tibor, zavqlanish, ijtimoiy munosabatlar, urf-odatlar. shuni inglizchaga ruschag tarjima qil.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Eron xalqi kundalik hayotida keng qo’llaydigan birikmalar va ularning semantik jihatdan tahlili amalga oshiriladi. Tahlil davomida o’sha leksik birliklarning nafaqat o‘z ma’nosini, balki konteksga qarab yuzaga keladigan ko‘chma ma’nolari ham ko‘rib chiqilib, ularning ijtimoiy muhitdagi o‘rnini turli misollar orqali tahlil qilinadi.

АНАЛИЗ ЛЕКСИКИ РАЗГОВОРНОГО ЯЗЫКА

Сабрина Келдиярова

Студентка 1 курса, группа персидского и английского языков

«Высшая школа иранистики и афганистики»

Ташкентский государственный университет востоковедения

keldiyorovasabrina97@gmail.com

C. Султанходжаева

«Высшая школа иранистики и афганистики»

старший преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: рассказ, сюжет, диалог, образ, Язык, общение, лексема, устная речь, контекст, значение, социальная среда, иранский народ, персидский язык, выражение, уважение, гостеприимство, удивление, недовольство, внимание, наслаждение, социальные отношения, обычаи.

Аннотация: В данной статье проводится анализ широко используемых выражений в повседневной жизни иранского народа и их семантических особенностей. В процессе анализа рассматриваются не только прямые значения этих лексических единиц, но и переносные значения, возникающие в зависимости от контекста. Их роль в социальном окружении анализируется на различных примерах.

Til insonning eng asosiy muloqot vositasi bo’lib, u orqali odamlar bir-birlari bilan fikr almashishadi, o‘z his-tuyg ‘ularini aks ettirishadi va kundalik hayotlaridagi ehtiyojlarini qondirishadi. Tilning tarkibiy qismi bo‘lgan leksemalar esa nutqning asosiy birliklaridan biridir. Har bir millatning kundalik hayotida ishlatadigan so‘zlari ya’ni leksemalari ularning urf-odatlari , odob-axloq qoidalari va ijtimoiy munosabatlarini ifoda etadi. So‘zlashuv nutqi - bu kundalik hayotda insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi bo’lib, u rasmiy bo‘limgan, erkin shaklda ifodalanadi. U og‘zaki nutqning tabiiy va jonli shakli hisoblanadi va jamiyatda muhim ijtimoiy rol o‘ynaydi. O‘z nomidan kelib chiqqan holda ushbu uslub turli rasmiy ish yuritish va ilmiy uslubdan holidir.

Eron xalqi o‘zining boy tarixiy me’rosi va o‘ziga xos madaniyati bilan ajralib turadi. Ularning doimiy so‘zlashuv nutqida ishlatiladigan birikmalar nafaqat muloqot uchun xizmat qiladi , balki

o‘zaro hurmat, mehmondo‘stlik va samimiyat kabi ulug‘ qadriyatlarini ham aks ettiradi. Fors tilining boyligi ,avvalo, uning leksik tarkibi bilan namoyon bo‘ladi. Bu fikrni yanada chuqurroq tushunish uchun ba’zi misollarni ko‘rib chiqsak: Masalan:

1) "ای بابا" birikmasi.

Ushbu birlikning asosi hisoblangan بابا so‘zi ham aksariyat so‘zlar kabi o‘z va ko‘chma ma’nolariga ega. Uning asl ma’nosи sifatida quyidagicha tarjima qilishimiz mumkin:

1.Ota, dada;

2.Bobo, buva;

3.Keksa bobo;

4.Qabila oqsoqoli.

Yana shuningdek, بابا shaxs ismi sifatida ham uchraydi. Fors tilida بابا qadimdan hurmat bilan murojaat qilish yoki izzatli insonlarga unvon sifatida ishlataligan. Tarixda bu nom bilan mashhur shaxslar bo‘lgan. Masalan: بابا طاهر Eronning mashhur tasavvuf shoirlaridan biridir.

Endi og’zaki nutqdagi ma’nolarini ko‘rib chiqsak.

بابا shuningdek, “ do’st” , “aka” , “og’ayni” degan ma’nolarda ham kelishi mumkin.

Bunga misol: (Og’ayni, nima qilyapsan?)

(Qo‘y, do‘stim.)

"ای بابا" birikmasiga qaytsak . Ushbu birikma konteksga qarab turli ma’nolarni yuzaga chiqaradi . Misol uchun, hayratlanish, shikoyat, asabiyashish hamda norozilik bilan bog’liq vaziyatlarda qo’llaniladi.

1. (ای بابا چرا باز نمیشه؟) Voy/ Yo xudo, nimaga ochilmayapti ?

Bu gapda norozilik, ajablanish va hafsalasi pir bo‘lish hissi ifodalangan. So‘zlovchi biror narsaning ishlashi yoki ochilishini kutgan, ammo bu o‘zi kutgani kabi natija bermagani va uning noroziligiga sabab bo‘ldi. "ای بابا" birikmasi uning hissiyotini kuchaytirgan va norozilik, ajablanish kabi ma’nolar aks ettirgan. چرا esa tushunmovchilikni ifodalagan.

2. (ای بابا چقدر تو حرف می زنی؟) Voy xudo, namuncha gapiryapsan?

So‘zlovchining me’yordan ortiq gapirgani tinglovchining asabiyashishiga sabab bo‘ldi. Demak, ushbu gapda "ای بابا" birligi hafsalasi pir bo‘lish, asabiyashish hamda zerikish kabi ma’nolar aks ettirgan.

3. (ای بابا حالا ماہ آپريله ، دарه برف میاد. ، مگه میشه) Tavba-tavba, hozir aprel bo‘lishiga qaramay qor yog‘yapti, axir bu qanday bo‘lishi mumkin.)

Bu jumlada so‘zlovchi ob-havoning odatdagidan farq qilishidan ajablanmoqda. U aprel oyida odatda qor yog‘masligini biladi, shuning uchun bu hodisadan hayron bo‘lib uning mantiqiy emasligini ta’kidlayapti . "ای بابا" birikmasi hayratlanish, kutilmagan vaziyatlarga nisbatan ajablanish

kabi ma'noda kelgan bo'lsa, esa voqeaning noodatiy ekanini ifodalab, shubha yoki ishonchszilikni bildiradi.

خوب بچه‌ها امروز می‌خواستم بهتون بکم. چه می‌خواستم بگم. ای بابا چه می‌خواستم بگم. یادم رفت. 4.

(Xo'sh bolalar, bugun sizlarga aytmoqchi edim, nima aytmoqchi edim, voy tavba, nima aytmoqchi edim... esimdan chiqdi)

So'zlovchi suhbatni "خوب بچه‌ها" (xo'sh bolalar) birikmasi bilan boshlaydi, bu esa e'tiborni jalg qilishga xizmat qiladi. Keyin "امروز می‌خواستم بهتون بگم" degan jumla orqali biror muhim ma'lumot berish niyatida ekanini ifodalaydi. Biroq, u o'z fikrini bir lahzaga yo'qotib, چه می‌خواستم بگم deb o'ziga savol beradi. "ای بابا" esa kuchli taajjub va hayratlanishni ifoda etgan.

2) حواسنوبد birikmasi

So'ngi yillarda Eron xalqi o'z so'zlashuv nutqida حواسنوبد birikmasini keng qo'llayotganlari guvohi bo'lamiz. so'zi diqqat, e'tibor, hislar, sezgilar degan ma'noni anglatса, esa بودن نبود birikmasini keng qo'llayotganlari fe'lining inkor shakli hisoblanadi. Demak, biz ushbu birlikni e'tiborim yo'q edi, esimdan chiqib qolibdi, payqamabman, nazarimga ilmabman, e'tiborga ilmabman deb ma'noviy tarjima qila olamiz. Misollar orqali ko'rib chiqsak:

-آرش دیروز بهم زنگ زد، گفت: آخر هفته دورهم جمع شیم پارتی کنیم.-

من گفتم: وقتم آزاده، میتونم بیام. میتونم بیای؟ میتونم بیای؟

-ببخشید، حواسنوبد، چه گفتی؟-

-اینهمه حرف زدم. حواسنوبد؟ عاشغی؟-

(-Orash kecha menga qo'ng'iroq qildi va dedi: "hafta oxiri yig'ilib kecha o'tkazaylik."

Men ayttim: Vaqtim bo'sh, bora olaman. Sen ham bora olasanmi? Sen ham bora olasanmi?

-Kechir, e'tibor bermabman, nima deding?

-Shuncha gapirdim, diqqating yo'q edi? Oshiq bo'lib qolganmisan?)

حساست نبود اما تو قلب کوچکم بزرگترین جارو داشتی.

(Sen payqamading, ammo mening kichik qalbimda eng katta joyni egallagan eding)

یکی دیگه از قشنگیای امشب این بود که، لاک زدم. حواسنوبد، دستمو کشیدم تو موهم.

(Bugun kechaning yana bir qiziq joyi shu bo'ldiki, lak surdim. Lekin diqqatim qochib, qo'limni sochimni tekkizib yubordim.)

3) حال میده birikmasi

Ushbu og'zakida tarqalgan حال دادن fe'lidan kelib chiqqan. Unga لذت بخشیدن حال میده birikmasi حالت خود را در میان دیگران از خود جدا کرده و آنرا در مقابل آنها نشان می‌دهد. fe'lini sinonim sifatida qo'llashimiz mumkin. Biror bir narsadan zavqlanish yoki boshqalarga zavq bag'ishlash kabi ma'noga ega.

خیلی (حال میده)

یه حالی میده

چه حالی میده

آخ حال مидеه ushbu birikmalar حال مидеه ga sinonim bo‘la oladi. Ya’niki:

- Bu juda yoqimli!
- Juda zavqli!
- Nihoyatda maroqli!
- Huzurbaxsh!
- Mazza!

Misol uchun:

چай خيلي حال مидеه
барон خили حال миде
Афتاب خили حال миде
Кнэрт Хили حال миде

Shuningdek, biz ushbu birikmani ko‘p hollarda fe’l bilan qo‘llaymiz:

(+fe’l حال مидеه) +ке

Хили حال миде ке باзм бховам. Хили حال миде ке до баре бховам.

(Yana uxlasam zo‘r bo‘lardi-da)

Хили حال миде ке чай бхорам.

(Choy ichib olsam, rosa mazza-da / zo‘r ketyapti-da choy ichish)

Хили الحال миде ке алан бистти бхорам.

(Hozir muzqaymoq yesam shunaqangi yoqimli bo‘lardiki)

Хили الحال миде ке алан бази кеним.

(Juda zavqli bo‘lyaptiya o‘yin o‘ynashimiz)

4. ضد حال زدن . birikmasi

Ushbu leksik birlik “ holatga qarshi” ya’ni kayfiyatni tushirmoq, ko‘ngilni ranjitmoq, kayfiyatni sindirmoq, yaxshi kayfiyatniyam yo‘qotmoq kabi ma’nolarga ega.

Misol uchun:

-فردا پارتIRO ميای ديگه؟

- نه، نميتونم بيا

-نمياى ضد حال نزن، تو كه گفتى، ميای

-آره، ولى بايد برم جاي-

-باشه، خيلي ضد حال زدي-

(-Ertaga kechaga kelasan-ku, shundaymi?

-Yo‘q, bora olmayman.

-Kelmaysanmi? Kayfiyatni tushirma, axir kelaman degan eding-ku.

-Ha, lekin boshqa joyga borishim kerak.

-Hop, juda kayfiyatni tushirding.)

Хуласа qilib shuni aytish joizki, mazkur maqolamizda ای بابا حوالمیده، ضد حال زدن، خال میده، ضد حال زدن، ای بابا kabi so‘zlashuv leksikasiga oid birliklar ko‘rib chiqildi. Ularning semantik ma’nolari aniqlandi va tahlil qilindi. So‘zlashuv uslubidagi birikmalarni keng o’rganish Eronga sayohat qilish yoki fors tilida so‘zlovchi insonlar bilan muloqot qilishga xizmat qiladi. Bu muloqotdagi tushunmovchiliklarning oldini olishga va ishonchli munosabatlar o’rnatishga yordam beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Sultanxodjayeva S. Forscha-o‘zbekcha-ruscha frazeologizmlar lug‘ati.-Toshkent, 2015.- 112b.
- 2.Bozorov S.A./ Abduhakimova U. Uslubiyat va nutq uslublari tasnifi, Toshkent, 17b.
3. Рубинчик Ю. А. Персидско-русский словарь, Москва, 1985. в 2 томах.
4. Голева Г. С. Фарси-русский фразеологический словарь. -М.: Граль, 2000.- С. 323.
5. ابوحسن نجف، فرهنگ فارسی عامیانه ۲، تهران، نیلوفر ۱۳۸۷. ص ۱۲۱۲
6. ایراج پزشکزاد، دایی جان ناپلیون، تهران، صفی علیشاه ۱۳۵۱، ص ۷
7. . https://www.youtube.com/watch?v=7_0fyoqTx6I
8. <https://www.easypersian.com/>